


NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

NAMANGAN VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI 2024- YIL YANVAR-DEKABR (DASTLABKI MA'LUMOT)




**Tel.: 69-211-72-00
www.namstat.uz**

Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

2024-yil yanvar-dekabr oylarida


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida Namangan viloyati korxonalari tomonidan 31 958,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 108,3 % ni tashkil etdi.

yanvar-dekabr
mlrd. so'mda




Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 82,4 % ni tashkil etdi.

yanvar-dekabr
FHI, % da




yanvar-dekabr
ulushi, % da



2024-yil yanvar-dekabr oylarida

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati 107,3 % ni tashkil etmoqda.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 130,8 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ini tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoat


2024- yil yanvar-dekabr oylarida



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 26 341,5 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 84,2 % ini tashkil etdi.




Oʻtgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,1 % ni (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida – 1,45 %), oʻrta-yuqori texnologiyali – 8,8 % (9,02 %), oʻrta-quyi texnologiyali – 15,1 % (15,21 %) va quyi texnologiyali – 75,0 % (74,32 %) ni tashkil etdi.



2024- yil yanvar-dekabr oylarida

Jami sanoat tarkibida asosiy faoliyat turlaridan biri to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish ulushi 21,4% (2023-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,0 %), oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 15,7 % (2023-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 103,8 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sohasining ulushi -4,3 % (2023-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 147,9 %), asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 0,7 % (2023-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 66,8 %), rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 2,0 % (2023-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 98,0 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning ishlab chiqarish hajmlari



2024- yil yanvar-dekabr oylarida



2024-yilning yanvar-dekabr oylari davomida jami sanoatda 28,8 ming tonna bug'doy uni ishlab chiqarilgan bo'lib, (2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 64,4 % ga kamaygan), 28,5 ming tonna paxta tolasi (101,1 % ga yetdi), 10,5 ming tonna omuxta yem mahsulotlari (50,0 % ga kamaygan) hamda 44,9 ming tonna paxta chigiti (91,1 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.


Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-dekabr	2024- yil yanvar-dekabr	2024- yil yanvar-dekabr
Omuxta yem, ming tonna	54,8	21,0	10,5
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	125,2	44,7	28,8
Paxta tolasi, ming tonna	36,0	28,2	28,5
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t	11,3	9,6	9,5

2024- yil yanvar-dekabr oylarida


Metallurgiya sanoati

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida jami sanoat tarkibida metallurgiya sanoati ulushi 0,4 % ni tashkil etib, uning hajm 109,8 mlrd so'm bo'lgan bo'lsa, 2024- yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga, metallurgiya sanoatining ulushi 2,6 % ga teng bo'lib, hajm esa, 832,9 mlrd so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Jami sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 1 418 ,1 mlrd so'mni yoki jami sanoat hajmining 5,7 %ni tashkil etgan. 2024-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar sanoati 1 619,5 mlrd so'mni tashkil etdi va jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmidagi ulushi 5,1 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish


Jami sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 4 033,8 mlrd so'mni, joriy 2024-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 5 021,9 mlrd so'mni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan jami oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 988,1 mlrd so'mga ortgan.



2024- yil yanvar-dekabr oylarida

Ichimliklar ishlab chiqarish


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 901,3 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 1 423,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 521,9 mlrd. so'mga ko'paygan va jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 4,5 % ni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish


2023-yilning yanvar-dekabr oylarida jami sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 24,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 103,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 21,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 108,0 % ga teng bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 6 853,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Kiyim ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, ja'mi ishlab chiqariladigan sanoat tarkibida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ulushi 13,1 % ni, ya'ni jami 3 240,5 mlrd so'mni tashkil etgan, 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida kiyim ishlab chiqarish ulushi 13,2 % ni tashkil etib, 4 224,9 mlrd. so'mga tengdir. Namangan viloyatida kiyim ishlab chiqarish o'tgan 2023-yilning mos davriga nisbatan 984,4 mlrd. so'mga oshgan.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2024- yil yanvar-dekabr oylarida

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 811,1 mlrd. so'mni, jami sanoatdagi ulushi 3,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida Namangan viloyati bo'yicha 706,0 mlrd. so'mlik kimyo mahsulotlari ishlab chiqarilib, jami sanoatdagi ulushi 2,2 % ni, tashkil etdi.

2022-yil 130,6 %

2023-yil 102,8 %

2024-yil 82,9 %

Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari 14,9 mlrd. so'mni tashkil etib jami sanoatining 0,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida ham koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish 14,9 mlrd. so'mni tashkil etgan.

2022-yil 107,6 %

2023-yil 104,6 %

2024-yil 84,5 %

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar jami sanoatdagi hajmi 592,1 mlrd. so'mni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida esa rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoati o'tgan yilga nisbatan 41,8 mlrd. so'mga kopaygan va 633,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2022-yil 133,4 %

2023-yil 131,4 %


2024-yil 98,0 %

2024- yil yanvar-dekabr oylarida

Elektr, gaz bug' , bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan 2023-yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3 521,6 mlrd. so'mni (jami sanoat mahsulotlari hajmining 14,2 % ini) tashkil etadi.

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5 083,7 mlrd yani 1 562,4 so'mga ko'payganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug', bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-dekabr	2023- yil yanvar-dekabr	2024- yil yanvar-dekabr
Elektroenergiya, mln.kVt.s	6576,6	7073,0	6650,2
Issiqlik energiyasi, ming gkal	2955,5	7019,0	6551,2

2024- yil yanvar-dekabr oylarida

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 403,0 mlrd so'mni (jami sanoat mahsulotlari hajmining 1,3 %ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-dekabr	2023- yil yanvar-dekabr	2024- yil yanvar-dekabr
Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va suv ta'minoti bo'yicha xizmatlar - mlrd so'm	124,4	133,3	171,7
Shahar xo'jaliklarning qayta foydalanishga yaroqsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	69,6	94,3	231,4

O'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv, suvni qayta ishlash va suv ta'minoti bo'yicha xizmatlar 171,7 mlrd. so'm yoki 38,9 % ga ko'payganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o'rnalarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 137,1 mlrd. so'mga ko'payganligi kuzatildi.


Namangan viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 31,1 %ni, shuningdek, To'raqo'rg'on tumani 19,0 % ni, Chust tumani 7,1 % ni, Kosonsoy tumani 6,2 % tashkil etdi.


Namangan viloyati



yanvar-dekabr o'sish sur'ati



Namangan sh.



mlrd. so'mda


FHI, % da

2024- yil yanvar-dekabr holatiga ko'ra


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 4 878,5 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 15,3 % ni tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da.




Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da (2024- yil yanvar-dekabr)



2024- yil yanvar-dekabr oylarida Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga To'raqo'rg'on tumani (24 465,0 ming so'm), Namangan shahrida (14 118,1 ming.so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Namangan viloyati




 o'sish sur'ati
 ming. so'm

Namangan viloyati



yanvar-dekabr o'sish sur'ati




2024- yil yanvar-dekabr oylarida


Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan 15 970,3 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 50,0 % ni tashkil etdi.

Namangan viloyati



yanvar-dekabr ulushi % da.



Shahar	Ulushi (%)	Hajmi (mlrd. soʻm)
Namangan sh.	60,3	5 998,3
Mingbuloq	40,2	428,0
Kosonsoy	46,3	918,1
Namangan	81,1	1523,2
Norin	99,9	593,7
Pop	78,2	693,8
To'raqo'rg'on	7,6	458,2
Uychi	70,2	1102,6
Uchqo'rg'on	41,9	385,7
Chortoq	43,3	300,0
Chust	25,4	573,6
Yangiqo'rg'on	99,9	484,8

jamidagi ulushi *mlrd. soʻm*



2025- yil 1- yanvar holatiga ko'ra


Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 3 890 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 455 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 37,4 % i) Namangan shahriga, 292 tasi (7,5 %) Kosonsoy tumaniga, 286 tasi (7,4 %) Namangan tumaniga, 279 tasi (7,2 %) Chust tumaniga, 278 tasi (7,1 %) Uychi tumaniga, 263 tasi (6,8 %) To'raqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Jami yangi tashkil etilgan



Jami faoliyat yuritayotgan




yangi tashkil etilgan faoliyat yuritayotgan

●●●●●●●● ●●●●●●●●

2024- yil yanvar-dekabr holatiga ko'ra

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 122 ta loyiha bo'yicha 3023,0 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 84,1 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi.



Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida 2034 ta yangi ish o'rinlari yaratildi. O'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 268,3 % ga ko'payganligi kuzatildi..